

**Abdulazizova Iroda Abdujaborovna**

*Farg'onan viloysi Toshloq tumani*

*32-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni dars jarayonida faollashtirish, faoliyat jarayonida shaxsning aqli, hissiyoti va irodasini kuchaytirish, takomillashtirish orqali uning o'sish qobiliyatini oshirish masalalari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** metod, vosita, usul, individual xususiyat, kompyuter

**Абстрактный.** В статье были высказаны мнения по вопросам активизации младших школьников в ходе урока, укрепления разума, эмоций и воли личности в ходе деятельности, повышения его способности к росту через совершенствование.

**Ключевые слова:** метод, инструмент, метод, индивидуальная характеристика, компьютер.

Ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishbugungi jamiyatda maktab oldiga qo'ygan muhim talablardan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyati va faolligini o'stirishdek muhim vazifa darsda faollik prinsipini muvaffaqiyatli qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'langan. Pedagog olimlar fikriga ko'ra faollik tamoyili quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

1. Ishning maqsad va vazifalarini aniq bilish, tushunish vatushuntirish;
2. Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko'rinish va shakllarni qo'llab o'qitish;
3. Har bir so'z, gap, tushunchani to'liq ochib bera olish;
4. Jamoa bo'lib, guruh bo'lib, bir-birini o'qitishga erishish;
5. Ta'lif samarali bo'ladi, qachonki siz ishlatilishiga oid misollar ko'proq keltirsangiz;
6. Har bir narsadan asosiysini topishga o'rgating;
7. Har bir shaxsning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o'qiting, muomalada bo'ling;
8. O'ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgating. Yordamchi narsalar ko'chirish, aytib turish, nusxa olishga o'rgatmang
9. Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llang. Demak, faollik shaxsning bilimlarni puxta egallash, o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muhim qobiliyatdi. Faollashtirish esa muayyan faoliyat jarayonida shaxsning aqli, hissiyoti va irodasini kuchaytirish, takomillashtirish orqali uning ish qobiliyatini oshirish demakdir. Uning fikrlashi, aqliy faoliyat ko'rsatishi, birinchidan, tashqi ta'sir natijasida (darslik materiali, o'qituvchi qo'llaydigan metod, vosita va usullar yordamida) amalga oshirilsa, ikkinchidan, ichki omillar-o'z faoliyatini o'zi aktivlashtirish orqali yuzaga chiqadi.

Ta'limni faollashtirish o'quvchi faoliyatining mahsuli bo'lib, bola faoliyatini faollashtirishga qaratilgan harakat sanaladi. Ko'pgina pedagogik adabiyotlarda agar o'quvchi materialni tushunarli qilib, bayon qilsa, ko'rsatmalilik hamda ta'limning texnik vositalaridan foydalansa, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni faollahashib, ta'lim samarali bo'ladi degan fikr ilgari suriladi. Ta'limni faollashtirish yuqorida ko'rsatilgan faktorlar bilan bir qatorda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini uyuştirish bilan ham bog'liq. Fikrlash bo'limgan joyda faollik haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Demak, ta'limni faollashtirish o'quvchi tomonidan bolaning fikrlash faoliyatini uyuştirish mahsuli bo'lib sanaladi. Boshlang'ich sinflarda o'yinlardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshirish bilan birga, ularni erkin va mustaqil fikrlashga yo'naltira olish bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, dars jarayonini qiziqarli kechishini ham ta'minlaydi. O'quv-topshiriqlarining yana bir turi topishmoqlar bo'lib, o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda ularning imkoniyatlari katta. Topishmoqlar o'quvchilarda til sezgirlingini oshiradi.

Topshiriqlar mazmuniga yashiringan noma'lumlik o'quvchilarning mantiqiytafakkurini o'stiradi. Topishmoqlar boshqa o'quv topshiriqlari singari o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga mos bo'lishi, o'rganilayotgan mavzu yoki bo'limning xarakter xususiyatlarini hisobga olishi lozim.O'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirishga qaratilgan topishmoqlar ona tili darslari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilish kun sayin kuchayib bormoqda. Interfaol usullar o'quvchilarni mehnat qilishga, diqqatni to'plashga, o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga, izlanishga chorlaydi, ularning darslarga qiziqishi ortib, darsdagi ishtiroki faollashadi va dars samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Ta'limning faol usullarini tadbiq etish yo'llari, ijodiy tafakkur sohiblarini, ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash bugungi kun o'quvchilari oldiga jiddiy ma'suliyatni qo'ymoqda. Shunga ko'ra biz mana shunday ma'suliyatli vazifaning yechimini topishga harakat qildik. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar faolligini oshirish uchun qiziqarli o'yin-topshiriqlar, topishmoqlardan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (kompyuterlardan, noan'anaviy dars usullaridan, interfaol metodlardan) unumli foydalanish maqsadga muvofiqli.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. - T.:TDPU. 2000.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

2. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

3. G'ulomova X., Yo'ldosheva sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitishmetodikasi. -T.: TDPU, 2013.